

INTERAKTIV METODLAR ORQALI TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Abdullaeva Maxmuda Shukrillo qizi – o`qituvchi,

Fransuz tili amaliy kafedrasи,

O`zbekiston Davlat Jahon Tillar Universiteti,

Annotatsiya: ushbu maqolada ta`lim jarayoni uchun eng muhim metodlardan biri sifatida namoyon bo`lувчи metodning tanqidiy fikrlash jarayonidagi ahamiyati hamda uni rivojlantirish borasidagi ilmiy qarashlari atroflicha talqin qilingan. Asosan, til o`qitish jarayonidagi uslublar va metodlardan unumli foydalangan holda talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o`stirish bo`yicha bir qancha fikrlar hamda takliflar bayon qilingan.

Kalit so`zlar: tanqidiy fikrlash, til birliklari, interaktiv suhbat, aqliy hujum, muammoli vaziyatlar.

РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ

Абдуллаева Махмуда Шукрилло кизи – учитель,

Практическая кафедра французского языка,

Узбекский Государственный Университет Мировых Языков,

Аннотация: В данной статье подробно рассмотрено значение метода в процессе критического мышления как одного из важнейших методов для образовательного процесса, а также научные взгляды на его развитие. В частности, изложен ряд идей и предложений по развитию навыков критического мышления учащихся с использованием методов и приемов обучения языку.

Ключевые слова: критическое мышление, языковые единицы, интерактивная беседа, мозговой штурм, проблемные ситуации.

IMPROVING CRITICAL THINKING ABILITIES THROUGH THE INTERACTIVE METHODS

Abdullaeva Makhmuda Shukrillo kizi,

***teacher, department of teaching theory and practice of french, Uzbekistan
state world languages university***

Abstract: In accordance with this article, the significance of method which is one of the most essential one for the process of teaching, particularly, for developing critical thinking skills based on scientific perspectives are widely portrayed. Basically, in the article, a myriad of ideas and suggestions related to the enhancement of students` critical thinking skills which are used productively as special techniques and strategies during language learning process

Keywords: critical thinking, language units, interactive conversation, mind attack, problematic situations

“ Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo`lib, kamolga yetishi bilan bog`liqdir. Odamlar, eng avvalo, yoshlarning ong –u tafakkurini ma`rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir” [1]

Shavkat Mirziyoyev

Ma`lumki, keskin rivojlanib borayotgan shiddatkor zamin nafaqat bir insondan, nafaqat bir jonzotdan, boringki butun bir koinotdan dunyoning qanchalar cheksiz hamda chegara bilmas imkoniyatlarga boy ekanligining yaqqol timsoli desak aslo mubolag`a bo`lmas. Zero, inson aql–u zakovati, teran salohiyati va uning chegara bilmas kuchli kamoloti ana shu shiddatkor yurtning farzandlariga yaxshilik hamda o`tkir zehn urug`larini ekib kelayotgani ham asl haqiqatdir. Shuni alohida ta`kidlab o`tmoq darkorki, bugungi kunda, ayniqsa, davlatning deyarli barcha sohalarida xorijiy tillarga bo`lgan e`tibor, munosabat hamda talabning qanchalar yuqori darajada ekanligi hech birimizga sir emas.

Axborot madaniyati har bir pedagogning ilmiy-bilish, o`quv jarayoni, mustaqil ravishda ta`lim olish, dam olish va boshqa faoliyat jarayonida yuzaga keladigan axborotga nisbatan bo`lgan ehtiyojni qondirishga yo`naltirilgan shaxsiy axborot faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etishni ta`minlaydigan malaka, bilimlar va ko`nikmalarning tizimlashtirilgan majmuasi sanaladi.

Fikrimiz tasdig`i sifatida shuni alohida ta`kidlamog`imiz joizki, san`atkor turfa xil jilvalar orqali o`z qobilyatlarini namoyon qiladi va ushbu rang –baranglik

orqali butun insoniyat ongi-yu shuurini, qalbini o`ziga rom qilib oladi. Xususan, pedagoglarning talabalarning tanqidiy fikrlash qobilyatlarini yanada rivojlantirishi hamda unga hamohang tarzda amaliy ko`nikmalarini shakllantirgan holda dars jarayonini amalga oshirishi nur ustiga a`lo nur bo`ladi. [2]

Yana shuni alohida e`tirof etmoq joizki, ta`lim jarayonining yanada samaradorligini oshirish maqsadida amaliyatga tatbiq qilinayotgan ertangi kun pedagog –kadrlari, jahonning eng ilg`or yetakchilari qatorida namoyon bo`lishi uchun o`z sohalarining buyuk namoyandalari bo`lib ko`kka intilishlari lozimdir, albatta. Shu jumladan, kelajak avlod vakillariga ta`lim –tarbiya berish asosan o`qituvchilarning, ya`ni har jihatdan buyuklikka erishgan san`at egalarining mahoratiga bog`liq bo`lgan jarayon sifatida qaraladi.

Tilning o`ziga xosligi, ya`nikim xorijiy tillarga bo`lgan talab va taklifning yuqoriligini hisobga olganda dars jarayonida til o`qituvchilari va bundan tashqari psixologlar, metodistlar quyidagi strategik tuzilgan rejalgarda e`tibor qaratmoqliklari lozim:

Talabalarning dunyoqarashi;

Dars jarayonida talabalar qanchalar ilg`or;

Talabalarning tezkorligi;

Talabalarning topqirligi;

Talabalarning har xil turdag'i boshqotirmali mashqlarga munosabati;


Talabalarning har xil turdag'i muammoli vaziyatlardagi roli va o`rni;

Talabalar va o`qituvchilar teng ravishda tanqidiy fikrlash qobilyatlarini amalga oshirishi. [3]

Texnologik o`yinlarni tanlash jarayonida, avvalambor, o`rganuvchilar, ya`ni o`quvchilarning psixologik holati, nutqi, bilish imkoniyatlari, tengdoshlari hamda kattalar bilan murosaga kela olish tajribasining har jihatdan o`sishiga ko`mak berishi, o`quv faoliyati bilim hamda ko`nikmalarini shakllantirishi, o`quv mashg`ulotlari hamda xorijiy tillarni o`rganishga bo`lgan qiziqishini uyg`otishi, natijalarni tahlil qilish, bir-biri bilan taqqoslash, mavhumlashtirish, jamlashni o`rganishda o`quvchiga ko`mak berishiga e`tibor qaratishi darkor. O`yinlarni

amalga oshirish jarayonida o`quvchining aqliy faoliyati, uning fanlarga nisbatan xatti-harakatlari bilan bog`liq bo`lishi lozim.

Shuni alohida e`tirof etmoq lozimki, xorijiy tillarning o`qitilish jarayonida pedagoglar, tilshunoslar, metodistlar, filologlar, faylasuflar, professorlar, adabiyotshunoslarning o`ziga xos va bir-birini takrorlamaydigan o`qitish metodlari, eng yuqori samaraga ega bo`lgan tajribalari ham katta ahamiyat kasb etadi. Shuni ta`kidlamoq joizki, Oliy ta`lim muassasalarida xorijiy tillar, masalan, ingliz tili, fransuz tili, xitoy tili, nemis tili, ispan va boshqa shu kabi tillarning maxsus metodlar orqali talabalarga mukammal qilib yetkazilishi til o`rganuvchilarning ishtiyoqi hamda qiziqishini nihoyatda oshiradi. [4]



Zamonaviy til texnologiyalarining xususiyatlari quyidagicha:

- ✓ *Tabiatga asoslangan;*
- ✓ *Amaliyotga asoslangan;*
- ✓ *Rang-barangligi;*
- ✓ *Mashqlar orqali muammoli masalalarni oson va aniqlik bilan bajarish uchun tizimlashtirilganligi;*

- ✓ *Uzoq natijaviylikka ega ekanligi;*
- ✓ *Psixologik hamda pedagogik rag`batlantiruvchi kuchga asoslanganligi;*
- ✓ *Dunyoqarash va ilmiylik tushunchalari bilan hamohangligi.*

Xulosa qilib aytganda, har qanday yaratuvchanlik zamirida o`ziga xos kamolot va intellektual salohiyatning mahsuli yotadi. Ya`ni talabalarga tanqidiy fikrlash qobilyatini rivojlantirish hamda ularni amaliy tarzda qo'llay olish imkoniyatining o`ziga xosligi nafaqat tilshunoslar, balki jamiki pedagog jamoasi tomonidan amaliyatga tatbiq etilayotgan zamonaviy metodlar hamda strategiyalarning keng ravishda qo`llanilishidan iboratdir. Zero, aql va tafakkur hamisha bir tan–u, bir jon bo`lib xizmat qilishini unutmasligimiz lozim.

Foydalaniman adabiyotlar ro`yxati:

1. Sh. Mirziyoyev "Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh assambleyasining 72 –sessiyasidagi nutqini o`rganish bo`yicha "illmiy –ommabop risola. Toshkent -2017, "Ma`naviyat " nashriyoti, 130 –bet.
2. Andreyeva G. M. " Sotsialnaya psixologiya" – M, 1998, 376-bet.
3. V. Qo`chqorov, O. Mahmudov. Z. Zamonov 10 -11- sinflar uchun darslik. Toshkent "Yangiyo'l poligraf servis" 2017. 38-bet.
4. A. Xoliqov " Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" Toshkent -2017 312 –bet.
5. Albrint A " Teachers attitudes toward information and communication technologies: The case of Syrian EFL teachers. Computers & Education". England–2006, pages–455-435.
6. Campbell A. P Using Live Journal for Authentic Communication in EFL Classes". The Internet TESL Journal 10(9), retrieved, Novemeber-18, pages–155-200.